



UDK 37.1174

Gulbaxor ISHMURADOVA

Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n

Email: gulbaxorishmuradova@gmail.com

Gulmera MIRZAYEVA

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti professori I.Kamolov tahqirizisida

METHODOLOGY FOR IMPROVING THE TEACHING OF THE TOPIC “ART OF ARCHERY” IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Annotation

In this article, Students of the technological educational direction of higher educational institutions are presented with a history of the origin of the “art of drought”, its content, modern methods of teaching and the development of practical training in its teaching. There are also examples of keys on the subject and recommendations in Steam training.

Key words and phrases: drying, dry, methods, folk crafts, technological education.

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ИСКУССТВО ЗАСУХИ» В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье представлена история возникновения, содержание, современные методы преподавания “искусства засухи” у студентов технологического образования высших учебных заведений и разработка практического занятия по его преподаванию. Также приведены примеры тематических исследований и рекомендации по обучению Steam.

Ключевые слова: сушка, сухой, методы, народные промыслы, технологическое образование.

TEKNOLOGIK TA'LIMDA “QUROQCHILIK SAN'ATI” MAVZUSINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida “Quroqchilik san'ati”ning kelib chiqish tarixi, mazmuni, o'qitishning zamonaviy metodlari va uni o'qitish bo'yicha amaliy mashg'ulotning ishlanmasi keltirib o'tilgan. Shuningdek, mavzu bo'yicha keyslar namunalari va STEAM bo'yicha o'qitishda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: quroqdo'zlik, quroq, metodlar, xalq hunarmandchiligi, texnologik ta'lim.

Kirish. Quroqchilik qadimiy kasb, milliy hunarmandchiligimizning betakror turlaridan hisoblanadi. Mayda bo'laklarni ulab, bezak yaratish, shu usulda tayyorlangan bezak buyumlar namunasi quroqchilik deyiladi. Shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Quroqchilik amaliy san'atda keng tarqalgan bolib ko'rpa, ko'rpacha, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlar qadimdan shu usulda tayyorlanib, ajoyib san'at namunalari yaratilgan. Yana quroq applikasiya ham deb ataladi. Quroqchilik san'ati dastlab Misr, Angliya, Shimoliy Amerika, Rossiyada rivojlangan. Keyinchalik O'zbekistonda ham quroqdo'zlik san'ati keng rivojlangan va o'ziga xos an'analari bilan boshqa xalqlar san'atidan ajralib turadi. Quroqdo'zlik hunari qadimdan ma'lum va yurtimizda qachon paydo bo'lgani haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo u xalq ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgani aytiladi. Qadim davrlardanoq kamchiqim oilalar mato va gazlamalardan avaylab foydalangan. Eski kiyim va matolarning butun qismlari ajratib olinib, ularni birlashtirib, yangi ro'zg'or buyumlari yoki liboslar tikilgan. Dastlab tejamkorlik maqsadida yaratilgan quroqdo'zlik buyumlari bugunga kelib san'at darajasiga ko'tarildi.

Yurtimizda quroqqa oid ayrim manbalar bizgacha ham yetib kelgan. Quroq, ya'ni yamoq darveshlar choponida uchragan bo'lib, ular marqa' va hirqa deb atalgan. XV asr tarixchisi Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha, marqa' va

hirqa yirtiq-yamoq bo'lgan eski choponlarga nisbatan aytilgan Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-Muhabbat” tazkirasida “muraqqa” so'zi uchrab, bu so'z ham darveshlarning libosi o'rmda qo'llangan. O'rta asr tasavvuf ahli, asosan, muraqqa' va shunga o'xshash liboslarda tasvirlanadi. Masalan, Kamoliddin Husayn Fanoiyning “Majolis ul-ushshoq” asarida shunday tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Muraqqa' yoxud quroqdan tikilgan liboslar yomon nazar va balolardan asraydi, deb ishonilgan.

Adabiyotlar tahlili: S. Bo'latovning “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati”, S.Bulatov., A.Muxtorovning “Ganchkorlik san'ati” nomli kitoblarida, Sh.K.Shoyoqubovning “O'zbek xalq amaliy-bezak san'ati”, Sh.K.Shoyoqubovning “Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi”, Q.M.Abdullayeva, M.A.Maksumova, M.Raximjanovanning “Gazlamaga badiy ishlov berish”, D.Murodovanning “O'zbekiston do'ppilari, M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayevaning “Xalq hunarmandchiligi”, A.Klientovning “Narodnye промыслы” nomli kitoblarida quroqchilik san'ati haqida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xalq hunarmandchiligidan bilim berishda tarixiy manbalarni tahlil qilish; hunarmandchilik buyumlari bilan tanishtirish, ish jarayonini kuzatish, tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi analiz va sintez, tahlil qilish, taqqoslash va sistemalashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Quroqchilik san'ati mavzusi Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" fanida o'qitiladi. Mazkur mavzuni o'qitishni zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarga tayanilgan yangi va samarali usullari shakllanmoqda. Bu metodlar talabalarning faolligini oshiradi, ijodiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtiradi. Quroqchilik san'ati mavzusini o'qitishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

1. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning). Talabalar haqiqiy hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan loyihalarni bajaradi. Bu usul tadbirkorlik, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan: quroqchilik san'ati asosida yangi tur loyiha (kiyim-kechak, dasturxon, ko'rpa-ko'pacha jild) yaratiladi.

2. Keys-metod (Case Study). Haqiqiy yoki modellashtirilgan holat tahlil qilinadi. Talabalar yechim topish, qaror qabul qilish va fikrlash ko'nikmalarini oshiradi. Masalan: Quroqchilik san'ati mavzusi bo'yicha keyslar (javoblari bilan)

1-keys: Milliy naqshni tanlash

Vaziyat: Ustoz xontahta quroq yasash jarayonida shogirdlarga turli naqshlar taklif qildi: "qaldirg'och", "quyosh", va "guldo'z". Shogird milliy uslubni saqlagan holda zamonaviy dizayn yaratishni xohladi.

Savol: Qaysi naqsh milliy an'anani ko'proq ifodalaydi va nega?

Javob: "Qaldirg'och" naqshi — u an'anaviy o'zbek quroqlarida baxt va parvoz ramzi sifatida qo'llaniladi. Shu sababli, milliylikni saqlagan holda zamonaviy uslubda ishlash uchun eng to'g'ri tanlov.

2-keys: Matoni tanlash

Vaziyat: Quroqchi "do'ppi uchun quroq" yasamoqchi. Uni juda chiroyli va mustahkam chiqishi kerak. Matolar sifatida ipak, jinsa va paxtadan tayyorlangan matolar taklif qilingan.

Savol: Qaysi mato turi do'ppi qurog'i uchun mos va nega?

Javob: Ipak yoki paxta mato — yengil, nafas oladigan va an'anaviy do'ppilarda ko'p qo'llaniladi. Jinsa og'ir bo'lgani uchun bunday buyum uchun mos emas.

3-keys: Ranglar uyg'unligi

Vaziyat: Quroqchi "navro'z" bayrami uchun devor panno yasamoqchi. U qo'ldagi matolar yashil, sariq, qizil va qora ranglarda.

Savol: Qanday rang uyg'unligi pannoga bayramona kayfiyat beradi?

Javob: Yashil + sariq + qizil — tabiatning uyg'unishi, quyosh va baxt ramzlari bo'lib, "Navro'z" mavzusi uchun mos. Qora rangni faqat chegara yoki ajratuvchi rang sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

3. STEM / STEAM yondashuvi. Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi asosidagi yondashuv. Talabalarni ijodiy va tahliliy fikrlashga o'rgatadi. Masalan: Quroqchilik san'atida STEAM yondashuvining qo'llanilishi.

Quroqchilik san'ati xalq amaliy bezak san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, unda ijodkorlik, ranglar uyg'unligi, naqshlar go'zalligi muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'limda STEAM yondashuvi (Science – Technology – Engineering – Art – Mathematics) asosida quroqchilikni o'rganish o'quvchilarda ilmiy, texnik, estetik va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

S — Science (Fan). Misol: o'quvchilar matolar tarkibi, bo'yoqlarning kimyoviy xususiyatlari, ranglarning o'zaro ta'siri haqida ilmiy tajribalar o'tkazishadi. Natija: Quroq uchun mos mato va rang uyg'unligini ilmiy asosda tanlashni o'rganishadi.

T — Technology (Texnologiya). Misol: quroqchilik dizaynini kompyuter dasturlarida (CorelDRAW, Canva, AutoCAD, Quilt Assistant) yordamida loyihalash. Natija: An'anaviy san'atni zamonaviy texnologiya bilan uyg'unlashtirish, naqshlarni raqamli shaklda saqlash va tahrirlash imkoniyati paydo bo'ladi.

E — Engineering (Muhandislik). Misol: quroq buyumlarini tikishda shakl, o'lcham, mustahkamlikni hisobga olib, konstruksion yechim ishlab chiqish. Natija: O'quvchilar muhandislik fikrlashini rivojlantirib, buyumning qulayligi va chidamliligini ta'minlashni o'rganadilar.

A — Art (San'at). Misol: quroqchilikda milliy naqshlar, rang uyg'unligi, kompozitsiya va estetik didni rivojlantirish. Natija: San'at orqali ijodiy tafakkur va estetik did oshadi.

M — Mathematics (Matematika). Misol: quroq naqshlarini yasashda geometrik shakllar, o'lchov birliklari, nisbat va simmetriya hisoblash. Natija: O'quvchilar amaliyotda matematik bilimlarini qo'llab, aniq o'lchov va shakllar bilan ishlashni o'rganadilar.

4. Multimediyaga va raqamli simulyatsiya usuli. Videodasturlar, 3D simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali o'qitish. Bu usul amaliy ko'nikmalarni xavfsiz va arzon sharoitda rivojlantiradi.

5. Flipped klassrum (Flipped Classroom) — Teskari sinf. Nazariy ma'lumotlar uyda video yoki onlayn dars orqali o'zlashtiriladi, amaliy ishlar esa sinfda o'qituvchi yordamida bajariladi.

6. Kompetensiyaga asoslangan o'qitish (Competency-Based Learning). Bu usulda bilim emas, balki amaliy malaka shakllantiriladi. Masalan: uchta gazlamani turli usulda tikishni mustaqil bajara olish.

7. Geymifikatsiya (Gamification). O'qitish jarayonida o'yin elementlari qo'llaniladi (ball, reyting, mukofotlar). Bu motivatsiya va raqobat hissini kuchaytiradi. Masalan: "Texnologik mashqlar chempionati".

8. Onlayn va gibrid ta'lim usuli. Onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle, Coursera) orqali dars o'tish, amaliy mashg'ulotlar esa oflayn tashkil etiladi.

9. Dizayn fikrlash (Design Thinking). Muammolarni kreativ yondashuv bilan hal etish usuli. 5 bosqich: empatiya → muammoni aniqlash → g'oya → prototip → testlash.

10. Kollaborativ (hamkorlikdagi) o'qitish. Talabalar jamoa bo'lib ishlaydi, vazifalarni bo'lishadi va birgalikda yechim topadi. Bu ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Quroqchilik san'ati mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot ishlanmasi quyidagicha bo'ladi.

Fan nomi: Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash

Mavzu: Quroqchilik san'ati

Mashg'ulot turi: Amaliy mashg'ulot

O'quv darajasi: Texnologik ta'lim yo'nalishi. Vaqti: 80 daqiqa

1. Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga milliy amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan Quroqchilik san'ati haqida nazariy va amaliy bilim berish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ijodkorlik va amaliyotda ko'nikma hosil qilish.

2. O'quv vazifalari: Quroqchilik san'atining tarixi va ahamiyatini tushuntirish; quroq turlarini (qo'lbola, mashinali, dizaynli) farqlash; matolarni tanlash va kompozitsiya yaratish ko'nikmasini shakllantirish; quroqni tikish texnologiyasini amaliy bajarish; zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy san'atni rivojlantirish usullarini ko'rsatish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar: turli rang va turdagi matolar; qaychi, ig'na, ip, metr, bor yoki mel; tikish mashinkasi; kompyuter va multimedia vositalari (video yordamchi materiallar); quroq namunasi (tayyor mahsulot yoki rasm).

4. Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qismi (5 daqiqa). Salomlashish, qatnashuvchilarni aniqlash, ish joyini tayyorlash. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini bayon etish.

II. Nazariy qism (20 daqiqa). Quroqchilik san'atining tarixi, milliy madaniyatdagi o'rni haqida mulohaza. Quroq turlari va texnologiyalari haqida multimedia taqdimoti. Zamonaviy texnologiyalar (dizayn dasturlari, 3D modellashtirish) haqida qisqacha ma'lumot.

III. Amaliy qism (50 daqiqa). Talabalar guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh tanlangan dizayn asosida kichik Quroq namunasini yaratadi. Tikkan mahsulotlarning aniqligi, rang uyg'unligi va kompozitsiyasi baholanadi. O'qituvchi maslahat va yo'l-yo'riq beradi.

IV. Muhokama va refleksiya (10 daqiqa). Guruhlar ish natijalarini taqdim etadi. O'zaro baholash va fikr almashish. Qo'llanilgan metodlarni tahlil qilish.

V. Xulosa va baholash (5 daqiqa). Eng yaxshi ish namunasi aniqlanadi. Baholash mezonlari asosida (ijodkorlik,

aniqlik, material tanlovi, jamoada ishlash) baholanadi. Keyingi mashg'ulot uchun tavsiyalar beriladi.

5. Qo'llanilgan zamonaviy metodlar: Loyiha usuli (Project-Based Learning); Keys-metod; Geymifikatsiya (ijodiy musobaqa shaklida); Kollaborativ (hamkorlikdagi) o'qitish; Multimediyaga texnologiyalaridan foydalanish.

6. Baholash mezonlari: Ijodkorlik va estetik uslub: 30%; texnologik aniqlik va tikish sifati: 25%; material tanlovi va rang uyg'unligi: 20%; jamoada ishlash va faol ishtirok: 15%; prezentatsiya va chiqish sifati: 10%;

Xulosa va takliflar. Texnologik ta'limda quroqchilik san'ati mavzusini o'qitishda zamonaviy metodlar nazariya bilan amaliyotni bog'laydi, talabani faol subyekt sifatida qatnashtiradi va ijodiy hamda innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. Bu usullar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu amaliy mashg'ulot talabalarda milliy amaliy san'atni qadrlash, Quroqchilikda ijodkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy dizayn elementlarini qayta yaratish ko'nikmasini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати Т.: Меҳнат. 1991.-279 б
2. Ishmurodova G.M., O'roqov K.X., Mirzayev G.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi 2021 " Fan va ta'lim " -370 bet
3. Ishmurodova G.M., Mirzayev G.M., Mirzayev E.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi 2021 " NasafNMU " -344 bet